SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 27-avgust | 189-8-118-Q/25 | Uzun tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 1-noyabrdagi 731-son qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 1-noyabrdagi 731-son Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 1-noyabrdagi 731-son Qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

quyidagilarni nazarda tutuvchi Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘rsidagi nizom;

talabgorlarga qo‘yiladigan talablar va ularning yutuqlari, ilmiy-ijodiy va amaliy ishlarini baholash mezonlari;

talabgorlarni tanlash bo‘yicha tuman hududiy komissiyalari faoliyatini tashkil etish;

talabgorlarning hujjatlarini taqdim etish va ularni rasmiylashtirish tartibi tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash bo‘yicha tuman komissiyasining namunaviy tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i Z.Mirzayeva manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda:

ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish ishlarini amalga oshirsin;

mazkur qaror talablari asosida ishlarni tashkil etsin hamda qabul qilgan huquqiy-tusdagi hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

5. Tuman hokimligi mazkur qarorning 2-ilovasiga muvofiq Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash bo‘yicha tuman komissiyasining tarkibini tasdiqlasin hamda mazkur qaror talablari asosida ishlarni tashkil etsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i Z.Mirzayeva zimmasiga yuklansin

Tuman hokimi **BOZOROV X.SH.**

Uzun tumani hokimining
2025-yil 27-avgustdagi
189-8-118-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash bo‘yicha
tuman komissiyasining

NAMUNAVIY TARKIBI

1	Z.Mirzayeva	-	tuman hokimining o‘rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, komissiya raisi
2	A.Abdusattorov	-	tuman (shahar) hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari
3	X.Xamrayev	-	tuman (shahar) Madaniyat bo‘limi boshlig‘i
4	S.Yuldoshev	-	tuman (shahar) Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
5	S.Abdiyev	-	tuman (shahar) Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
6	Sh.Ashurmamatov	-	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman (shahar) bo‘limi boshlig‘i
7	S.Tashanov	-	Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo‘limi boshlig‘i
8	Sh.Mavlonov	-	Savdo-sanoat palatasining tuman (shahar) hududiy bo‘limi boshlig‘i
9	I.Bobokalonov	-	tuman (shahar) gazetasi bosh muharriri
10	O‘.Rajabov	-	xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi kotibiyati mudiri, xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi deputati
11	D.Bozorova	-	tuman (shahar)dagi Bolalar musiqa va san’at maktabi direktori
12	*Lavozimiga ko‘ra*		Tumandagi professional ta’lim muassasasi direktori
13	*Lavozimiga ko‘ra*	-	tuman (shahar)dagi umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi
14	N.Isroilova	-	tuman (shahar)dagi umumiy o‘rta ta’lim maktabining tasviriy san’at fani o‘qituvchisi
15	*Lavozimiga ko‘ra*	-	“Uzbekkonsert” davlat muassasasi estrada xonandasi
16	*Lavozimiga ko‘ra*	-	erkin ijodkor, yozuvchi
17	Z.Iminov	-	tuman (shahar)dagi Bolalar va o‘smirlar sport maktabi murabbiyi
18	*Lavozimiga ko‘ra*	-	tuman (shahar) Oila va xotin-qizlar bo‘limi mutaxassisi, komissiyaning mas’ul kotibi